

**TARJIMANING KOGNITOLOGIYA BILAN ALOQADORLIGI****Saidova Dildora Farxod qizi**

Annotatsiya: Ushbu tezisda tarjima o'ziga xos transformatsiya usuliga ega ekanligi ko'rib o'tilgan. Tarjima qilinayotgan so'zlarning ongda tasavvurga aylanib, so'z holatiga kelgunigacha bo'lgan yo'li bayon etilgan.

Kalit so'zlar: tarjima, kognitologiya, konsept, lingvistika, nutq, tafakkur, tarjimon.

Dolzarbli. Tarjima ijodiy jarayondir. Tarjima nutqning bir turi sifatida lingvistik nuqtai nazardan tarjima qilinadi, ya'ni tarjima jarayoni bir tilning boshqa tilga tarjima qilinishini bildiradi.

Mohiyati. Bizning mamlakatimizda tarjima nazariyasi mustaqil filologiya fani sifatida asosan XX asrning 50-yillarida shakllana boshlagan, biroq tarjima amaliyoti bir necha ming yillik tarixga ega. Tarjima - bu ikki xil til o'rtasidagi tarjimaning lingvistik jarayonidir. Arab, fors, hind, ozarbayjon, turk, rus tillaridan ko'plab ilmiy, tarixiy, siyosiy, diniy, falsafiy va badiiy kitoblarni o'z tillariga o'giran tarjimonlarimiz asrlar davomida qabul qilingan va amalda bo'lgan taniqli tarjimonlardir. Tarjima ularning e'tiqodlari va qoidalariga asoslanadi. Shunday qilib, "tarjima"ni o'ziga xos transformatsiya deb hisoblash mumkin. Shu sababli har bir tarjimon o'z obyektiga moddiy borliq haqidagi bilimlari va tasavvuri, leksik boyligi, obyekt anglatayotgan tushunchani tafakkur orqali analiz qilgan holda yondashadi. Tarjima nazariyasi lingvistika, sotsiolingvistika, kognitiv lingvistika kabi tilshunoslik bo'limlari bilan uzviy aloqadorlikda rivojlanmoqda. Ayniqsa kognitologiya va tarjimashunoslik orasidagi uzviy bog'liqlik ko'zga tashlanib turadi. Matnlarni tarjima qiluvchi bevosita va bilvosita kognitiv bilim strukturasiga murojaat qiladi. Har bir tarjimon bilimlarining u yoki bu strukturani ifodalashida o'z atamasini (yangiligini) qo'llashga harakat qiladi. O'z konsepti, ya'ni ma'lum bir obyekt haqida eshitganda tafakkurida gavdalangan shakl asnosida yondashadi. So'zlar bir tildan ikkinchi



tilga o'tish jarayonida, til sath birliklaridagi bo'yoqdorliklar, stilistik birliklar, tilning o'ziga xos xususiyatlari, madaniyat va urf-odat tafovutlari, xalqaro so'z birikmalarini ongda obraz-geshtald-freym-konsept paydo bo'lishi orqali namoyon bo'ladi. Bu uzviy jarayon sodir bo'lishi uchun juda qisqa vaqt, bir necha millisekundlar sarflanadi. Ushbu hodisa tilda aytiladigan so'z va tafakkurda shakllangan bilimning ifodasidir.

Xulosa: Tarjima jarayonida tarjimon o'z kognitiv va leksik semantik bilimlariga tayangan holda kerakli atamani shakllantiradi. Bu holatda turli bo'yoqdorliklar ishlata olish, kerakli so'zni tanlay olish qobiliyati tafakkurda shakllanish orqali yuzaga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. International Conflict Cooperation and Management, Slippery Rock University, Pennsylvania, 2000
2. Linvisticheskiy ensiklopedicheskiy slovarь. –M.: SE, 1990
3. Safarov SH. Kognitiv tilshunoslik. –Jizzax: Sangzor, 2006. -B. 28.